

ILIQLASHAYOTGAN SAUDIYA-ERON MUNOSABATLARINING YAQIN SHARQ MINTAQASIGA TA'SIRI

Erkinova Zulfiya Farhod qizi

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Eron Islom Respublikasi va Saudiya Arabistoni Qirolligi o'rtasidagi yaxshilanib borayotgan munosabatlar va ularning Yaqin Sharq mintaqasi hamda jahon siyosatiga ta'siri haqida so'z boradi.*

Kalit so'zlar: *Sunniylik, shialar, Yaqin Sharq, diplomatik aloqalar, Xitoy.*

Ko'p yillardan beri o'zaro sovuq aloqalarga ega bo'lgan Yaqin Sharqning ikki yirik davlatlari – Eron Islom Respublikasi va Saudiya Arabistoni Qirolligining yaqin kunlar ichida ikki tomonlama munosabatlarni tiklash uchun harakatlari jahon hamjamiyati hamda Islom dunyosida katta qiziqish bilan qarshi olindi. Yaqin Sharqning ko'plab davlatlari orasida Eron va Saudiya Arabistoni maqomi, tarixiy ahamiyati, tabiiy resurslari va ularning ko'lami jihatidan alohida ajralib turadi. Mintaqaning lokal xavfsizligi Tehron va Ar-Riyod o'rtasidagi munosabatlarning holatiga ma'lum darajada bog'liq, chunki ularning har biri Islomdagi oqimlardan birining (shiizm va sunniylik) flagmani bo'lib, mamlakatlar geografik joylashuvining o'ziga xosligi, neft va gaz resurslar bazasi global ahamiyatga egadir. Ikki davlat o'rtasidagi munosabatlarda siyosiy, iqtisodiy va diniy bloklar mavjudligi, Yaqin Sharq mintaqasi va islom olamida yetakchilik uchun raqobat hamda nizoga yirik davlatlarning aralashuvi ham eron-saudiya munosabatlarining “Yaqin Sharq Sovuq urushi”ga aylanib qolishining sabablaridandir.

1979-yil Eronda amalga oshirilgan Islom inqilobidan so'ng yomonlashib borgan ikki davlat munosabatlari bugunga qadar ko'p marotaba keskin ko'rinish olgan edi. Ilk nizolar 1988-yilgi Haj ziyorati mavsumida kelib chiqqan. Davlat rahbarlari tomonidan Haj muloqot uchun eng yaxshi platforma ekanligi ta'kidlansada, 1987-yil 31-iyulda Haj paytida politsiya bilan bo'lgan to'qnashuvlar natijasida 375 nafar eronlik ziyoratchilarning halok bo'lishida Eron hukumati Saudiya Arabistonini aybladi. 1988-yil mart oyiga qadar haj atrofidagi mojarolarning davom etishi ohir oqibat Saudiya hukumati tomonidan Eron uchun ziyorat kvotalarining 55 mingtaga qisqartirilishiga sabab bo'ldi. Eronning 150 ming ziyoratchi uchun kvotaga bo'lgan talablari qondirilmagach, 1988-yilning aprel oyida Tehron va Ar-Riyod o'rtasidagi diplomatik aloqalar butkul uzildi. 1991-yil mart oyida Eronning ziyoratchilar uchun 105 ming kvotaning qo'lga kirtishi 1990-yil oxiri va 2000-yillar boshlariga qadar ikki davlat o'rtasidagi aloqalarni bir qadar normallashtirdi. O'rtadagi iliq munosabatlar 2003-yil AQSHning Iroqqa bostirib kirgunicha davom etdi. AQSH koalitsiya kuchlari tomonidan Saddam Husayn ma'muriyati o'rniga shialar boshchiligidagi hukumat davlat tepasiga

kelishi Ar-Riyoddagi shia va sunniy musulmonlar o'rtasida bir qancha qo'zg'alishlarga olib keldi. 2011-yilda ro'y bergan Arab bahori ham ikki tomonlama munosabatlarni yanada keskinlashtirib yubordi. 2012-yilda yirik shia voizlaridan biri Oyatulloh Nimr an-Nimrning Ar-Riyodda terorrchilikda ayblanib qo'lga olinishi 2016-yilga qadar Eron Saudiya munosabatlarining jiddiy va keskin tusga kirib borishiga zamin yaratdi. 2016-yil 3-yanvarda an-Nimr va uning 46 nafar tarafdorlari qatl etildi. Bunga javoban namoyishchilar tomonidan 6-yanvar kuni Tehrondagi Saudiya elchixonasiga o't qo'yib yuborildi. Bu hodisa bugungacha ikki davlat o'rtasidagi har qanday diplomatik aloqalarga to'siq edi.

Ikki musulmon davlatlarning yarashib olishi uchun, albatta, tashqi tomondan yordam zarur edi. Bu paytda AQSH Donald Tramp boshchiligida Isroil bilan birgalikda Saudiyani qo'llab-quvvatladi. Bunga sabab esa AQSH-Eron munosabatlarining yaxshi emasligi hamda Saudiyaning Qo'shma Shtatlar bilan mustahkam aloqalari bo'ldi. Yevropa Ittifoqi tomonidan kiritilgan yagona taklif Bryusellning aloqalar uchun platforma sifatida ilgari surilishi bo'ldi. Albatta, ikki yirik davlatning murosaga kelishi nafaqat Yaqin Sharq mintaqasi uchun balki butun Islom dunyosi uchun ham zarur edi. Eronda 2021-yilgi prezidentlik saylovlari natijasida Ibrohim Raisiy boshchiligidagi 13-hukumat hokimiyat tepasiga keldi. Eron tashqi ishlar vaziri Xoseyn Amir Abdollaxiyan Raisiyning Eron Saudiya aloqalariga munosabatini quyidagicha ifodaladi: "Eron va Saudiya Arabistoni o'rtasidagi munosabatlarni normallashtirish ikki mamlakat, mintaq va umuman Islom dunyosi uchun katta imkoniyatlar ochmoqda. Yaxshi qo'shniçilik siyosati Eronning hozirgi hukumati ishining asosiy yo'nalishi bo'lib, to'g'ri yo'nalishda harakat qilmoqda va Eron diplomatiyasi qo'shimcha mintaqaviy qadamlarni tayyorlamoqda". Ibrohim Raisiy hokimiyatga kelguniga qadar ham 2021-yildan boshlab yaxshi qo'shniçilik aloqalarini o'rnatish bo'yicha bir qancha urinishlar bo'lgan edi.

2021-yilning oxiriga kelib ikki tomonlama munosabatlarda diplomatik ruh sezila boshladi. 2022-yil sentabr oyida Saudiya Arabistoni valiahd shahzodasi Muhammad bin Salmon "Ar-Riyod va Tehron qo'shniçilik munosabatlariga ega bo'lishi kerakligi"ni ta'kidladi. 2021-yilda Tehron va Riyod o'rtasida Ummon va Iroq vositachiligida munosabatlarni normallashtirishga urinish yuzaga keldi, ikki yil ichida muzokaralarning bir necha bosqichlari bo'lib o'tdi. Shu bilan birga, 2023-yil 16-yanvarda TIV rahbari Amir Abdollaxian Tehronning Ar-Riyod bilan munosabatlarni har tomonlama normallashtirishga tayyorligini bildirdi, Bag'dodda ikki mamlakat o'rtasida besh raundlik "muhim va ijobiy" muzokaralar bo'lib o'tdi. Ushbu muzokaralarning oxirgisi 2023-yil 6-10-mart kunlari Xitoy vositachiligida Pekin shahrida bo'lib o'tdi. Ikki davlat delegatsiyalarga Milliy xavfsizlik bo'yicha maslahatchi va Saudiya Arabistoni davlat vaziri Musayed Al-Ayban va Eron milliy xavfsizlik Oliy kengashi kotibi Ali Shambani boshchilik qilishdi. Tashqi ishlar vazirligi boshlig'i Van I muzokaralarda Xitoy tomonidan ishtirok etib, Xitoy pozitsiyasini quyidagicha ifodaladi: "Xitoy har doim

Yaqin Sharqning kelajagi Yaqin Sharq davlatlari qo'lida bo'lishi kerak deb hisoblagan". Muzokaralar yakuni bo'yicha uch tomonlama bayonot imzolandi, unga ko'ra yaqin ikki oy ichida Tehron va Ar-Riyodda elchixonalar, Jidda va Mashxadda konsulliklar faoliyati qayta yo'lga qo'yilishiga kelishib olindi. "Texnik guruhlar hamkorlikni kengaytirish yo'llarini, shu jumladan parvozlarni qayta tiklash va rasmiy va xususiy sektor delegatsiyalarining ikki tomonlama tashriflarini o'rganish va ikki mamlakat fuqarolari uchun vizalar berishni osonlashtirish bo'yicha muvofiqlashtirishni davom ettiradi", deyiladi qo'shma bayonotda. Budan tashqari Eron va Saudiya Arabistoni 2001-yilgi xavfsizlik shartnomasi va 1998-yilgi savdo, iqtisodiyot, madaniyat, fan va muhandislik bo'yicha hamkorlik shartnomasini qayta tiklash niyatida ekanligi ta'kidlandi.

Mart oyida ikki mamlakat o'rtasida diplomatik munosabatlarni tiklash bo'yicha erishilgan kelishuv natijasida joriy yilning 9-mayiga qadar Ar-Riyod va Tehronda elchixonalar faoliyat boshlashi kutilmoqda. Eron TIV vakillari tomonidan ijobiy qadamlar sababli ikki mamlakat o'rtasida siyosiy aloqalar asosan tiklanib ulgurani bayon etildi. So'nggi haftalar davomida Eron va Saudiya Arabistoni tashqi ishlar vazirlarining uchrashuvi ham bo'lib o'tdi. Shuningdek, Eron prezidenti Ibrohim Raisiy Qirollik shohi Salmon ibn Abdulaziz al-Saudni Tehronga taklif qilishi yaqin kunlarda ikki davlat rahbarlarining uchrashuvini ham kutish mumkinligini anglatadi.

Xulosa qilib aytganda, Xitoy tomonida olib borilgan konstruktiv siyosat natijasida 7 yil dushman sanalib kelgan ikki yirik davlatlar murosaga kelishmoqda, ular o'rtasida diplomatik aloqalar yo'lga qo'yilmoqda. Bu esa jahon siyosati va musulmon olami uchun ijobiy yangilik. Eron Islom Respublikasi va Saudiya Arabistoni Qirolligi o'rtasida yaxshilanayotgan munosabatlar bugun Yaqin Sharq mintaqasidagi mavjud katta nizolar, jumladan o'n yillar mobaynida davom etib kelayotgan Yamandagi fuqarolar urishiga barham berishi, mintaqaning boshqa davlatlari – Suriya, Bahrayn va Qatar o'rtasidagi mavjud aloqalarning mustahkamlanishiga olib kelishi mumkin. Islom olamida esa bu holat katta guruhlar sanalgan sunniylar va shialar aloqalarida normallashtiradi hamda boshqa yirik musulmon davlatlari uchun yaxshi namuna bo'la oladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mannonov A.M. Yaqin Sharq mamlakatlaridagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlar– T.: Sharq, 2019.
2. https://www.bbc.com/russian/international/2016/01/160103_saudi_iran_relations
3. <https://rg.ru/2023/03/12/iran-i-saudovskaia-araviia-dogovorilis-o-normalizacii-otnoshenij-kakova-reakciia-stran-regiona.html?ysclid=lgg5nwe6mi564176596#bounce>
4. <https://www.aljazeera.com/news/2023/4/6/saudi-arabia-iran-agree-to-continue-efforts-to-establish-ties>
5. <https://www.mofa.gov.sa/en/Pages/default.aspx>